

MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLAR HUQUQLARINING KAFOLOTLANISHI

D. M. Ergashev

AndDU Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6722620>

Abstract.

Ma'lumki, Asosiy qonunimizning muqaddimasida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi alohida qayd etilgan. Avvalo shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati milliy qonunchilik hujjatlari va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoida-talablariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi bevosita yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan o'ttizdan ortiq xalqaro-huquqiy hujjatning ishtirokchisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi BMTning yosh avlodning huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid universal ahamiyatga ega muhim hujjatlarini ratifikatsiya qildi. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya va boshqa halqaro-huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi YUNESKO va Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan qabul qilingan asosiy konvensiyalarning ishtirokchisi hisoblanadi va ushbu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqda. Jumladan, joriy yil 4 aprelda "Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyani (Jeneva, 1999 yil 17 iyun) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonun, 8 aprelda esa "Ishga qabul qilishning eng kichik yoshi to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi.

Bugungi kunda shuni ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining yoshlar huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik tizimi xalqaro huquqning demokratik tamoyillariga mos kelishi bilan birga, rivojlangan demokratik davlatlarning huquqni qo'llash amaliyotining ijobiy jihatlarini ham o'zida to'liq ifodalaydi. Mazkur demokratik standartlar yoshlarga oid davlat siyosatining asosini tashkil etib, qonunchilik jarayonida va huquqni qo'llash amaliyotida keng tatbiq etilmoqda.

Shu bois, mustaqillikning ilk kunlaridayoq — 1991-yil 20-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishning tamal toshi, ya‘ni huquqiy asosi bo‘ldi. Qonunda yoshlar hayotiga daxldor prinsipial masalalar o‘z aksini topgan. Eng muhim jihati, yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatining subyektlari sifatida nafaqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, balki nodavlat tuzilmalar birgalikda faoliyat olib borishi belgilab qo‘yildi.

2002 yil 12 fevraldan kuchga kirgan Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taa‘lluqli Fakultativ protokol bolalarni huquqiy himoya qilish va ulardan qurolli mojarolarda foydalanishning oldini olishda alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda hozir bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularni jinoiy faoliyatga jalb etilishiga qarshi kurashishning yaxlit tizimi barpo etilgan. Mazkur xalqaro-huquqiy hujjatga qo‘shilish bu sohada olib borilayotgan, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari hamda normalariga xos bo‘lgan qonunchilik ishlari va huquqni qo‘llanish amaliyoti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1994 yil 29 iyulda imzolangan Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga muvofiq, 18 yoshga yetmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi va u muddatidan ilgari voyaga yetmaydi.

2008 yil 12 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokolga (Nyu-York, 2000 yil 25 may) qo‘shilishi haqida»gi qonun qabul qilindi.

Bolalarni qurolli mojarolarga qatnashishdan himoya qilish, a‘zo davlatlarning 18 yoshga to‘lmagan bolalarni harbiy yoki safarbarlik xizmatiga chaqirish bilan bog‘liq milliy qonunchiligini takomillashtirish hamda davlatlar ichida va ular chegarasidan tashqaridagi harbiy harakatlarda bolalarni yollash, o‘qitish va ulardan foydalanish uchun javobgarlik muqarrarligini qonunchilikda belgilash mazkur Fakultativ protokolning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha mamlakatimizda qabul qilingan normativ-huquqiy aktlarda harbiy majburiyatlarning alohida belgilab qo‘yilganligi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq o‘n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo‘lgan, salomatligiga ko‘ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli, harbiy ro‘yxatda turuvchi va xizmatga chaqirilishi lozim bo‘lgan fuqarolar muddatli harbiy xizmatga

chaqiriladi. Qonunning 46-moddasiga muvofiq, safarbarlik e'lon qilinganida va urush davrida harbiy xizmatga o'n sakkiz yoshdan boshlab ushbu Qonunda belgilangan rezerv va zaxirada bo'lish yoshi chegarasiga qadar yoshdagi harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar chaqirilishi belgilangan.

Bundan tashqari, xalqaro tamoyillar va normalarga muvofiq, ushbu qonun 18 yoshga to'lmagan shaxslarni ixtiyoriy yoki majburiy ravishda nodavlat qurolli guruhlariga yollashning oldini olishda ishonchli huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bola huquq va manfaatlarini kafolatlovchi bir qancha qonunchilik aktlari mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. 1991 yil 20 noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun yoshlarning ijtimoiy hamda ma'naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berishda muhim omil bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ota-ona qaramog'idan chetda qolgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish tamoyillari belgilangan.

Bu yo'nalishdagi qonunchilikning takomillashuvi natijasida 2008 yilning 7 yanvarida O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, 2008 yil 16 aprelda "Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunlari qabul qilindi. 2008 yil 17 aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda trafikka qarshi kurash samaradorligini oshirish, odam savdosi qurbonlari bo'lgan bolalarning manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi yoshlarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ham ta'minlaydi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kim bilim olishda teng huquqli ekani kafolatlangan.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasi ham milliy qonunchiligimizda alohida ifoda etilgan va bu borada yoshlar huquqlari ta'minlanmoqda. Birgina o'tgan yilning o'zida kollej va oliy o'quv yurtlarini tamomlagan bitiruvchilar uchun 660 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratilgani ham buning tasdig'idir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.B.Boboyev, H. T.Odilqoriyev «Davlat va huquq nazariyasi». T. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» 2000-y
2. A.Saidov U. Tojinonov «Huquq nazariyasi». T. “Adolat”. 2001-y.
3. O.Ayupov. « Dunyo siyosat jamiyat 9 ». “Ziyo” nashriyoti. Guliston 2018